O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

Dildora A. MURATOVA,
DSc, professor v.b, Sarbon universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: muratovadildora959@gmail.com, ORCID: https://orcid.org/0000-0002-8654-9277

Falsafa fanlari doktori (DSc), professor F.Musayev taqrizi asosida

JAMIYATDA EKOLOGIK QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI VA SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya

Maqolada ekologik qadriyatlarning shakllanishi va jamiyatdagi sotsiomadaniy o‘zgarishlar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Aksiologik va tizimli yondashuvlar asosida tabiatga mas’uliyatli munosabatning axloqiy mazmuni yoritiladi. Barqaror rivojlanish, ekologik ongning globallashuvi, uzluksiz ta’lim hamda huquq va mas’uliyatning uyg‘unligi asosiy yo‘nalishlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Ekologik qadriyatlarni kundalik xulq-atvor va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog‘lash zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Ekologik qadriyatlar, sotsiomadaniy transformatsiya, aksiologiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, ekologik mas’uliyat.

THE FORMATION OF ECOLOGICAL VALUES AND THEIR SOCIOCULTURAL TRANSFORMATION IN SOCIETY

Annotation

The article examines the formation of ecological values and their relationship with sociocultural change. Axiological and systemic approaches are used to explore the ethical meaning of a responsible attitude toward nature. Sustainable development, the globalization of environmental awareness, lifelong environmental education, and the relationship between rights and responsibility are considered as key directions. The analysis emphasizes the need to connect ecological values with everyday conduct and the activities of social institutions.

Key words: Ecological values, sociocultural transformation, axiology, environmental awareness, ecological culture, sustainable development, environmental responsibility.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ И ИХ СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В статье анализируются формирование экологических ценностей и их связь с социокультурными изменениями. На основе аксиологического и системного подходов раскрывается нравственное содержание ответственного отношения к природе. Рассматриваются устойчивое развитие, глобализация экологического сознания, непрерывное образование и единство прав и ответственности. Обосновывается необходимость связи экологических ценностей с повседневным поведением и деятельностью социальных институтов.

Ключевые слова: Экологические ценности, социокультурная трансформация, аксиология, экологическое сознание, экологическая культура, устойчивое развитие, экологическая ответственность.

Kirish. Ekologik qadriyatlarning shakllanishi inson va tabiat munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq. Tabiiy resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va yashash muhitini asrash iqtisodiy yoki texnik vazifalar bilan birga axloqiy tanlovni ham talab qiladi. Muammoning dolzarbligi ekologik bilimlarning kundalik faoliyatga qay darajada aylanishi, shaxsiy manfaatlar va umumiy ekologik ehtiyojlar o‘rtasidagi munosabat bilan belgilanadi.

Ekologik qadriyatlarning shakllanishi zamonaviy jamiyatning eng muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Bu jarayon jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olmoqda va kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Buni biz kundalik hayotda plastik idishlardan voz kechish, chiqindilarni saralash, ekologik toza mahsulotlarga e’tibor qaratish, shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish kabi harakatlarda ko‘rishimiz mumkin. Bunday ijobiy o‘zgarishlar nafaqat yirik shaharlarda, balki kichik shahar va qishloqlarda ham kuzatilmoqda.

Maqolaning maqsadi ekologik qadriyatlarning shakllanishini jamiyatdagi sotsiomadaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda tahlil qilishdir. Asosiy savol ekologik mas’uliyatning shaxsiy e’tiqod, ijtimoiy me’yor va amaliy faoliyatga aylanish shartlarini aniqlashdan iborat. Bunda qadriyatlarning tarixiy talqini, ekologik madaniyatning axloqiy mazmuni va uni rivojlantirish yo‘nalishlari o‘zaro aloqada ko‘rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlar tizimi qadriyatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu xususda fikr yuritgan olim I.Ergashev ta’kidlaganidek, “o‘z o‘rnida bu kabi uzviy bog‘liqlik insonlar hayotidagi ma’lum davr qadriyatlarining umumiy ko‘rinishi uchun asos bo‘lib, ulardagi umumiylik, mutanosiblik, yangilanuvchanlikni ifodalaydi hamda ushbu jarayonlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi”. Bu fikrlar qadriyatlar tizimining dinamik tabiatini ochib beradi va ularning doimiy rivojlanish jarayonida ekanligini ko‘rsatadi[1].

Q. Nazarov aksiologiya qonuniyatlarining jamiyat hayoti sohalari bilan uzviy aloqadorligini ta’kidlaydi [2, 196-b.]. Ushbu yondashuv ekologik qadriyatlarni alohida talablar yig‘indisi emas, ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq tizim sifatida talqin qilishga imkon beradi. Qadriyatlar mazmuni o‘zgarganda, mehnat, iste’mol va tarbiya amaliyotlarida ham yangi mezonlarga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Inson borlig‘iga oid qadriyatlar masalasi tarixiy-falsafiy an’analarda qadimgi davrlardan boshlab o‘rganila boshlangan. Antik davrda “qadriyat”, “qadriyatlar olami”, “qadriy hukmlar” kabi kategoriyalar hali falsafiy mushohadaning alohida predmeti sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, bu tushunchalar faylasuflar e’tiboridan chetda qolmagan. Qadimgi Yunon faylasuflarining asarlarida, xususan, Platon, Arastu, shuningdek Rim faylasuflari Seneka va Sitseron ijodida qadriyat tushunchasi foyda va ezgulik bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Ayniqsa, Arastu o‘zining falsafiy qarashlarida qadriyat masalasiga alohida e’tibor qaratgan. U “Ko‘p jihatdan foydali bo‘lgan narsa ko‘proq qadriyatga ega bo‘ladi... Shuning uchun ham boylik va sog‘lik eng oliy ne’matlar hisoblanadi, chunki ular boshqa barcha ne’matlarni ta’minlab beradi”, deb ta’kidlagan [3].

O‘rta asrlarga kelib, qadriyatlar haqidagi bu talqin yanada rivojlantirildi. Bu davrning yirik mutafakkirlari - Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiy va Ibn Sino kabi faylasuflar qadriyatlar tushunchasini diniy ta’limoti bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘rgandilar. Ular qadriyatlarni ilohiy ne’mat sifatida talqin etib, ularning diniy-axloqiy mohiyatini ochib berishga harakat qildilar [4].

E.V.Girusov o‘z fundamental izlanishlarida tahlil va kuzatishlar asosida muhim xulosaga keladi: “Ekologik madaniyat insoniyat madaniy taraqqiyotining eng yuqori bosqichi sifatida namoyon bo‘lmoqda”. Ushbu qarash ekologik madaniyatning nafaqat ekologik, balki umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi strategik ahamiyatini ilmiy asoslab beradi [5].

“Insonning tabiatga axloqiy munosabati uning kundalik faoliyatida aniqlanadi, deb yozadi Sh.Rasulova. - Ayni paytda har bir shaxsning ahlokiy-ekologik faoliyati jamiyatning maqsad va vazifalari vositasida belgilanadi. Shu yerda ekologik axloq normalarining ilmiy-metodologik konsensiyasini ishlab chiqish va undan amaliyotda foydalanish zaruriyati kelib chiqadi. Demak, ekologik axloq normalari muayyan ilmiy-metodologik tizimga asoslanishi kerak, bu hol tabiatga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllanishiga va ijtimoiy-axloqiy normalarning qaror topishiga xizmat qiladi” [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Aksiologik yondashuv tabiatning inson uchun ahamiyati hamda ekologik mas’uliyatning axloqiy asoslarini ochib berishga xizmat qiladi. Tizimli yondashuv ekologik qadriyatlar, ong, ta’lim va ijtimoiy me’yorlar o‘rtasidagi aloqalarni yaxlit ko‘rib chiqishga imkon beradi. Tarixiy-falsafiy tahlil qadriyatlar haqidagi qarashlarning rivojlanishini tushuntirish uchun qo‘llanadi. Maqoladagi xulosalar adabiyotlar va tushunchalar tahliliga asoslanadi; mustaqil so‘rov yoki statistik tajriba natijalari keltirilmaydi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy tushunishda ekologik qadriyatlar keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarni shakllantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu qadriyatlar tizimi insoniyat oldida turgan global ekologik muammolarni hal etishning ma’naviy-axloqiy asosini tashkil etadi.

Ekologik qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning ekologik ongi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayon uzluksiz davom etayotgan bo‘lib, hozirgi kunda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bunda ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik axloq normalarining shakllanishi, tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik qadriyatning sotsiomadaniy mazmuni uning jamiyatda qabul qilingan turmush tarzi bilan aloqasida namoyon bo‘ladi. Tabiatga ehtiyotkor munosabat shaxsiy e’tiqod bo‘lib qolmasdan, oila tarbiyasi, ta’lim mazmuni, kasbiy faoliyat va jamoatchilik talablarida ifodalanishi kerak. Shu ma’noda, transformatsiya qadriyatlarning shunchaki yangilanishini emas, ularning kundalik qarorlar uchun mezonga aylanishini anglatadi.

Fikrimizcha, barqaror rivojlanish tamoyillarining ustuvorligi zamonaviy ekologik qadriyatlar tizimining eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Bu fundamental tamoyillar iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi nozik muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi.

“Barqaror rivojlanish (sustainable development) tushunchasining aksariyat talqinlari G.X. Brundtland Komissiyasi tomonidan berilgan ta’rifga asoslanib, uni haqli ravishda klassik termin deyish mumkin, deb yozadi N.Tangirov. - Bunda iqtisodiyotning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash insonning atrof-muhit (biosfera) bilan o‘zaro harakatda rivojlanishi bilan qay darajada kelishilganligiga bog‘liq. Makro-mezo- va mikro darajada ijtimoiy ekologik-iqtisodiy tizimlar barqaror rivojlanishiga o‘tish – umuman, iqtisodiyot, soha, korxona darajasida – yangi huquqiy normalar, yangi boshqaruv tizimini talab etadi” [7].

Ekologik qadriyat nuqtayi nazaridan, bu tamoyillar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit musaffoligini saqlash va ekotizimlar barqarorligini ta’minlash kabi muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu tamoyillar iqtisodiy faoliyatni ekologik me’yorlar asosida tashkil etish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi.

Bu yo‘nalish kelajak avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda bugungi kundagi rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi, bu esa ekologik qadriyatlarning avlodlararo adolat tamoyili bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bunda tabiiy resurslarni tejash, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, ekologik ongning globallashuvi mahalliy ekologik muammolarni kengroq o‘zaro bog‘liqlikda tushunishni talab qiladi. A.D. Ursul global jarayonlar, xavfsizlik va barqaror rivojlanishni birgalikda ko‘rib chiqadi [8]. Ushbu yondashuv xalqaro hamkorlikning zaruratini tushuntiradi. Biroq umumiy maqsadlar har bir hududning tabiiy sharoiti, iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy tajribasi hisobga olingandagina amaliy mazmun kasb etadi.

Uchinchidan, ekologik ta’lim tizimining takomillashuvi - bu ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u ta’limning barcha bosqichlarida ekologik bilim va amaliy ko‘nikmalarni tizimli ravishda shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bu jarayonda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyat, tabiatni kuzatish, ekologik muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlarini izlash kabi muhim jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi.

Bu jarayon maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy ta’lim dargohlarigacha uzluksiz davom etib, har bir bosqichda o‘quvchi va talabalarning yosh xususiyatlari va qabul qilish imkoniyatlariga mos ravishda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarda tabiatga mehr uyg‘otish va unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish tuyg‘usi shakllantirilsa, umumta’lim maktablarida ekologik bilimlar asoslari o‘rgatiladi. O‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida esa ekologik bilimlar yanada chuqurlashtirilib, sohaga oid maxsus ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.

Ekologik ta’lim samarasi bilimlarni eslab qolish bilangina cheklanmaydi. Resurs sarfini kuzatish, mahalliy ekologik muammoni aniqlash va yechimni muhokama qilish

bilimni amaliy ko‘nikmaga aylantiradi. Ta’lim jarayonida shaxsning tabiatga munosabati bilan uning kundalik odatlari o‘rtasidagi muvofiqlikka e’tibor qaratish zarur. Bu jihat ekologik mas’uliyatni tashqi talabdan ichki ehtiyojga aylantirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, ekologik huquq va mas’uliyat tushunchalarining rivojlanishi - bu strategik yo‘nalish ekologik qonunchilikning izchil takomillashuvi va jamiyatning barcha qatlamlarida ekologik mas’uliyat hissining tobora kuchayishi bilan uzviy bog‘liq. Bu jarayon zamonaviy ekologik talablar va xalqaro standartlarga muvofiq ravishda amalga oshirilib, milliy qonunchilik tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Bu jarayon davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va ularning atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi mas’uliyatini oshirishga qaratilgan. Bunda nafaqat davlat organlari, balki nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari va har bir fuqaroning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik qonun-qoidalarning bajarilishini nazorat qilish mexanizmlari takomillashib, jamoatchilik nazoratining roli tobora ortib bormoqda.

Ekologik mas’uliyatning mustahkamlanishi huquqiy talablarning tushunarliligi va ularni bajarish uchun mavjud sharoitga ham bog‘liq. Fuqarodan chiqindilarni saralash talab qilinar ekan, tegishli infratuzilma va axborot ham ta’minlanishi lozim. Shaxsning axloqiy mas’uliyati, tashkilotlarning faoliyati va jamoatchilik ishtiroki birgalikda ko‘rib chiqilganda ekologik qadriyatlar barqaror amaliyotga aylanishi mumkin.

Ekologik-estetik yo‘nalish tabiatga munosabatning hissiy va ma’naviy tomonlarini ochib beradi. E. Maynbergning ekologik muammoga falsafiy-antropologik yondashuvi insonning tabiat oldidagi o‘rnini qayta anglashga undaydi [9]. Bu nuqtayi nazardan, “ekologik inson” tabiatni faqat foydalaniladigan resurs sifatida ko‘rmaydigan, o‘z faoliyatining oqibatlarini hisobga oladigan shaxs sifatida talqin qilinishi mumkin. Tabiat go‘zalligini qadrlash amaliy mas’uliyat bilan birlashganda tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ekologik qadriyatlarning shakllanishi jamiyatning madaniy me’yorlari, axloqiy qarashlari va ijtimoiy institutlaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Ularning sotsiomadaniy transformatsiyasi tabiatni asrash g‘oyasining shaxsiy e’tiqoddan kundalik xulq-atvor va jamoaviy faoliyat mezoniga aylanishida ifodalanadi. Barqaror rivojlanish, uzluksiz ekologik ta’lim, huquq va mas’uliyatning uyg‘unligi bu jarayonning o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlaridir.

Amaliy jihatdan ekologik ta’limni mahalliy muammolar bilan bog‘lash, resurslardan foydalanishda mas’uliyatli odatlarni rivojlantirish va jamoatchilik tashabbuslarini zarur sharoit bilan qo‘llab-quvvatlash tavsiya etiladi. Keyingi tadqiqotlarda ekologik bilim, qadriyat va real xulq-atvor o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq ijtimoiy guruhlar misolida tekshirish lozim. Bu ekologik madaniyatdagi o‘zgarishlarni umumiy mulohazalardan tashqari amaliy dalillar asosida baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ergashev I. Demokratiya – milliy va umumbashariy qadriyat // Jamiyat va boshqaruv. –Toshkent, 2004. -№ 1. –B.12-13.
2. Nazarov Q. Aksiologiya. – Toshkent: A.Qodiriy nomli nashriyot, 1994. – B. 196.
3. Aristotel. Poetika. Ritorika / Aristotel. – SPb.: Izdatelskiy Dom “Azbuka-klassika”, 2007.–S.126.
4. Greskiy S. V. Problemy antropologii v filosofskix sistemax Ibn Siny i Fomy Akvinskogo. — Dushanbe, 1990.
5. Girusov E.V. Ekologicheskaya kultura kak vysshaya forma gumanizma.//Filosofiya i obshchestvo. 2009; 2(54). S.74-92.
6. Rasulova Sh. Inson axloqiy-ekologik madaniyatini falsafiy jihatlari// Ekonomika i sotsium. 2021, №3(82) ch.2. 273-b.
7. Tangirov N. “Barqaror rivojlanish” g‘oyasining nazariy-amaliy ahamiyati// Academic Research in Educational Sciences. 2022. Volume 3/Issue 6. 1083-b.
8. Ursul A.D. Globalnye protsessy, bezopasnost i ustoychivoye razvitiye.//Vek globalizatsii. 2018. №1: S. 65-73.
9. Meinberg E. Environmental destruction: a philosophical-anthropological perspective. http://www.bu.edu/wcp/Papers/Anth/AnthMein.htm